

THE ROLE OF FINE ART IN THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC EDUCATION IN STUDENTS

Mengnorov Islam Jumanazarovich

Teacher

(e-mail: i.mengnorov@tersu.uz)

(phone number: +99897 529 72 72)

Annotation:

This article talks about the importance of teaching visual arts in higher education institutions, the importance of visual arts in the development of aesthetic education in students.

Keywords: fine art, aesthetics, taste, ability to think, analysis-synthesis, action processes.

TALABALARDA ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI

Mengnorov Islom Jumanazarovich

o'qituvchi

(e-mail: i.mengnorov@tersu.uz)


(telefon raqam: +99897 529 72 72)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at fanini o'qitishning ahamiyati, o'quvchilarda estetik tarbiyani rivojlantirishda tasviriy san'atning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, estetika, did, fikrlash qobiliyat, analiz-sintez qilish, harakat protsesslari.

Estetik tarbiyani shakllantirish va rivojlantirishning aniq vazifalari mavjud, bolalarni zehnli qilib tarbiyalash, ularda estetik xis va rassomchilik qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy malakalarini yanada oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Estetik tarbiyaning birinchi vazifasi shundan iboratki, bu orqali o'quvchilar zehnli bo'lishi, go'zallikni ko'ra bilishi va tushunishi, xursandchilikni xis qila bilishi kerak. Estetik tarbiyaning ikkinchi vazifasi- estetik did, estetik baho bera olish qobiliyatini o'rgatishdir, bu vazifada o'quvchilarning asosan nutqi va fikrlash qobiliyatini rivojlantiriladi. Bolalar og'zaki nutq asosida o'z fikrlarini bayon qila olishlari kerak.

Estetik tarbiyaning uchinchi vazifasi bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishdir. Oliy ta'lim muassasalarida har xil qobiliyatga ega bo'lgan bolalar uchraydi.




Ayrim bolalar chiroqli chizadilar, ayrimlari esa yasash qobiliyatiga ega. O'quvchilarni san'atning biror bir turiga qanchalik erta qiziqtira olsak, bolaning estetik tarbiyasi, idroki shu darajada barvaqt rivojlanadi. O'quvchilarning tasviriy faoliyat jarayonida ularni rasm chizishga qiziqtirish va ularning ijod bilan shug'ullanishlari o'z samarasini beradi.

San'atning rasm chizish turi bilan shug'ullanish bolalarni atrof-olamga, insonning ijtimoiy hayotiga, o'simliklar va hayvonot olamiga qiziqishini kuchaytiradi, ular atrofdagi narsalarni diqqat bilan kuzatishni o'rganadilar. O'quvchilarning estetik sezgisini, tuyg'usini va estetik tarbiyasini yuqori darajali sur'atlar, portretlar, milliy o'yinchoqlar, milliy naqshlar va boshqa san'at turlari bilan tanishtirmasdan shakllantirish mumkin emas. Yuqori darajali rasmlarni qiziqish va diqqat bilan kuzatganlaridagina o'quvchilarning rasm chizish san'atiga qiziqishi uyg'onadi, rasmlarga bo'lgan munosabatlari shakllanadi. Bolalar o'zлari chizgan rasmlarida ranglardan to'g'ri foydalana olishga o'rganadilar. O'quvchilar bir-birlarining chizgan rasmlariga baho berishlari kerak. Tasviriy faoliyatda o'quvchilarning Vatanga bo'lgan muhabbatni va milliy san'atga qiziqishlari rivojlantiriladi. Tasviriy faoliyat darslarida o'quvchilarni boshqa insonlar tomonidan chizilgan rasmlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishga, muomula madaniyatiga ham o'rgatilib boriladi. Shuningdek, olgan bilim va yangiliklarni to'g'ri tasvirlab bera olishga o'rgatiladi. Tasviriy faoliyat darslarida yangiliklar tanishtirilayotganda, bilim va malakalar berilayotganda, bilim berish va tasvirlab berish yuqori darajada bo'lishi lozim. Yangilikni bilim va malakalarni shakllantirish uchun darsni o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil qilish lozim. Ish qurollaridan to'g'ri foydalani olish (qaychi, bo'yoq, qalam,) ish materiallariga ehtiyyotkorlik bilan yondoshish (loy, plastilin, rangli qog'oz, yelim....) va boshqalar yaxshilab tushuntirilishi kerak.

Dars davomida lepka, aplikatsiya, konstruktsiyalash, predmetli, dekorativ rasm chizishda o'qituvchi bolalarga bajarilayotgan vazifaning har bir etapini ko'rsatib tushuntirib berishi lozim. Dars davomida har bir bolani nazorat qilib turish lozim. O'qituvchi vazifani bajarishda qiynalayotgan bolalarga yordam berishi kerak.

Rasm chizishda o'quvchilarni analiz-sintez qilishga, ranglarni ajratishga o'rgatiladi. O'quvchilar bilan rasm darslarida individual hamda kollektiv bo'lib rasm chizish turlari olib boriladi. Tasviriy san'at darslarida bolalarning estetik diddari rivojlantiriladi, shuningdek rasm chizishda ketma-ketlikka rioya qilish o'rgatib boriladi. Rasm chizishni sistemali olib borishda propedevtik – tayyorlov etapining ahamiyati katta.

Propedevtik davrning asosiy vazifasi o'qituvchi har bir o'quvchining qobiliyati va bilish faoliyatini o'rganishdan boshlanadi, bu etapning asosiy maqsadi sezgilarni shakllantirish va boyitishdir. Ayniqsa quyi sinflarda sensorikani rivojlantirib borish kerak, sensor rivojlanishni to'g'ri tarbiyalash o'yin, mehnat va kundalik faoliyatda amalga oshirib boriladi.



Bu ish faoliyatlariga rasm chizish ham kiradi. har bir oddiy predmetni chizishdan oldin,bolalarda diqqatni, ko‘rish, taktik va harakat protsesslarini rivojlantirish uchun tayyorlov etapi olib boriladi. Asosi vazifa harakatning nutq bilan birga olib borishiga haratiladi. Korrektcion maqsadda turli xil didaktik vositalar (piramidalar, matreshka, sharlar), qurilish konstruktorlari, didaktik o‘yinlardan (rangiga qarab tanla, “Geometrik loto”) foydalaniladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, rasm orqali olib boriladigan didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda mustaqillikni rivojlantirib boradi. Tasviriy san’at darslarida bolalarning tafakkuri, diqqati, xotirasi, idroki, umuman ongi rivojlanadi. Tasviriy faoliyat bolalarda badiiy ijodni o‘sirishda muhim rol egallaydi. Bolaning badiiy ijodi o‘sishi-bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo‘lgan malaka, ko‘nikmalarni egallah hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. roser, Max; Ortiz-Ospina, Esteban (2019). “Primary and Secondary Education”. World in Data. Retrieved 24 October 2019.
2. Watkins Hanna, Mark (May 1943). “The West African “Bush” Schools”. American Journal of Sociology. 48 (6): 666–675. doi:10.1086/219263.
3. Seerat M., Abdugafforovich T. K. Theoretical and Methodical Instructions for the Implementation of the Modern Project of the Building of the Place of Storage of Food Products //European Journal of Agricultural and Rural Education. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 1-3.
4. Tangirov I. X. et al. GRAPHIC AND METHODICAL INSTRUCTIONS FOR MAKING A CIRCUIT //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 94-98.
5. Тураев X. A. “INVERSIYA” METODI VOSITASIDA BO’LAJAK CHIZMACHILIK FANI O’QITUVCHILARINING LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.60.46.026> Turayev Xumoyiddin Abdug’afforovich TerDU, Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi kafedrasи mudiri //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2021. – №. 1-Maxcyc сон. – С. 289-293.